

60530900 - Fizika

bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60530900 - Fizika ta'lim yo'nalishi-fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, o'rta, o'rta mahsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni echish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalariga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari;
- umumiy o'rta, o'rta mahsus, kasb-hunar ta'limi tizimining tashkilotlari;
- ommaviy axborot vositalari; davlat boshqaruvi organlari; ishlab chiqarish korxonalari.